

О'ZBEK QIZIDAN HESSEGA MAKTUB

Suhbatlashdi : O`zDJTU magistranti Marhabo Sattorova.

"O'z tilini yaxshi bilmagan, uni sevib ardoqlamagan, parvarishlamagan va himoya qilmagan xalqning shoiri bo'lish uyatdir". Hermann Hesse

Men talaba bo'lgan edim, ham meni eng katta orzuim amalga oshgan edi. Xayr qishlog'im, xayr bolaligim! Biz oilada to'qqizta farzandmiz. Shahardan kelin bo'lib arang qishlog'imizga ko'nikkan ustozim - Robiya Qurbonova sabab nemis tiliga butun oilamiz, qolaversa, butun qishlog'imiz o'zgacha hurmat, mehr, havas bor edi. Axir bu til bizga olamni ko'rsatishi mumkin edi, bu til orqali dunyo kezishimiz mumkin ekanligin ich- ichdan his qilardik. Qishloqda barchamizga yumush ko'p edi. Biz dehqon edik, cho'pon edik, lek mudom qo'limizda nemischa kitob bo'lardi. Akalarim kitob ustida uxlab qolishardi. Ular universitetga kirish uchun nemis tilidan test yechishardi. Ular uxlab qolishganda bu testlarni yechib qo'yardim. Testlar kitobchada to'g'ri belgilansa, akamlar o'qishga kiradi deb o'ylaganman. Akamlarga achinganimdan nemis tilini o'rgana boshladim. O'sha yillar katta akam magistraturaga, kichik akam bakalavr bosqichiga to'lov- shartnoma asosda o'qishga kirishdi. Bizni ikkisini ham o'qitishga moliyaviy imkoniyatimiz yo'q edi. Tavakkal qilib dadam ikki akamni ham o'qishga yubordi. Bir hafta o'tib, katta akam " men bakalavr o'qidim yetadi, ukam o'qiy qolsin" deya shahardan kelib qo'ydi. Yana bir hafta o'tib, kichik akam " akam davom o'qib olim bo'lsin, men o'qimayman" deb qaytdi. Ikkalasi ham chin dildan o'qigisi kelsa- da, jigarchilik oqibatlari ustun turardi. Bir yil to'lov qildik, kelasi yil oilamiz Germaniyaga o'qishga ikki stipendiya yutib olgan edi, ha ikki akam ham Germaniyadek davlatning baxtli talabasi edi. Hozirda ular olim bo'ldi, biri Germaniyada, biri nemis- o'zbek aloqalarini mustahkamlash yo'lida xizmat qilmoqda. To'rt opa- singil nemis filologlari bo'ldik, ukam ham Germaniyada o'qib keldi. Bizning nemis tiliga bir hurmatimiz ming bo'lib qaytdi.

Bir kun bozorda bir ayol sumkasini ushlab turishimni iltimos qildi. Sumkasi og'ir edi, bir zum bir stulchaga cho'kdim. Bir vaqt bozor ma'muriyati mikrafonida meni qaddi- qomatim, sochim, bo'yim, yuz shaklim, kiyimim tasvirlanayotgan o'g'ri haqidagi ma'lumot ketardi.

- Nemis tili o'qituvchisi deyishmadimi- deb yonimdagi kishidan so'ray ketibman. Ha, nemis tili men uchun or edi, g'urur edi!

Gyoteni, Shillerni, Hayneni, Hesse va Kafkani o'z tilida o'qiy olishim men uchun sharaf edi. Kelgusida ularning qaysidir asarlari men tomondan o'zbek kitobxoniga yetib borishin o'ylab entikib ketaman.

Talabaligimda bir asar tahlili qildik. Bu "Cho'l bo'risi" edi. O'sha kuni hech uxlay olmadim. Asardan bir parchagina o'qigan edik, asarni to'liq topish hissi meni chulg'ab olgan edi. O'sha paytda bu asar "Jahon adabiyoti" jurnalida berib borilayotgan edi, har sonini intizorlik bilan kutib o'qirdim. Bu asar umuman tushunarsiz, bejilo, zerikarli degich o'rtoqlarim ham topildi, hatto ularni yomon ham ko'rib ketdim. Men "cho'l bo'risi" bilan yashay boshladim. Asarni har o'qiganimda bir ma'no topardim. Herman Hesse meni idealimga aylanib borayotgan edi.

Bir kun talabalar bilan bir tarjimon uchrashuvi tashkillashtirildi. Men tush ko'rayotgan edim go'yo! Men Hesseni yonida turgan edim, biz u bilan gaplasha olish imkoniyatiga ega edik! Ko'rinishi ham qandaydir adibga o'xshab ketarkin! Bizga shunday asar mutoolasini hadya qilgan, yozuvchi bilan teng dard chekkan, qolaversa, undan ikki hissa ko'proq talabchanlik talab qilinadigan tarjimon xalqi vakillaridan biri - Mirzaali Akbarov bilan bevosita suhbatda edik. Ular odmigina kiyingan, kamtargina, asosiysi samimiy edi. Mening " asar qahramoni sizga qanchalik yaqin" degan savolim "eng yaxshi savol" deb topildi va alohida sovg'aga ega bo'ldim. Uchrashuv yakunida tarjimon ortidan nimalarnidir so'rash uchun yugurdimu, uyaldimmi, yeta olmadim. Chunki hali ular bilan suhbatdosh bo'lishga menda yetarli bilim, jur`at yo'q edi. Nemis tiliga, xalqiga, madaniyati va adabiyotiga muhabbatim bor edi xolos. Tarjimon manzilin olib qolmaganin hasratida o'n to'rt yil yashadim, oila tashvishlari, boshqa sohada ishlab biroz qiziqishlarim unutgandek bo'ldim. Baribir ichimda nimadir sado berib turardi. Men " Cho'l bo'risi" ni unutishim mumkin emasdi.

Nogoh ijtimoiy tarmoqda tarjimon Mirzaali Akbarov bilan bog'lana olishim mumkinligini bilib qoldim. Nemis tilini bilganim bilan nemis tilida fikrlay olmasdim, Hesseni his qila olmasdim. Tarjimon Akbarovchalik bizda hech kim bevosita nemis tilidan o'zbek tiliga asarlarni o'girmayotgan edi, Hesse haqda ularchalik hech kim ko'p ma'lumot bilmasdi. Men uchun Mirzaali Akbarov - Hesse edi, " cho'l bo'risi" edi, meni yaqin sirdoshim edi. Tarjimon bilan bir yurtda yashayotganligimga ishonmasdim. Mohir tarjimonlarimizdan biri- Yosh Verterni bizga tanishtirgan Yanglish Egamovani topgunimcha u dunyoga rixlat qildilar, bu armon menga!

"Ularni asrashimiz kerak" ! Tarjimon Akbarov haqda o'ylarkanman, faqat shu jummlalar xayolimda gir aylanardi.

Ularni har qidirganim samarasiz bo'lardi. So'nggi umid deya ularga yana bir xabar qoldirdim. U kishi ijobiy qabul qilgan edi. Hamon ilk suhbatimiz eslasam shodlanib ketaman. Chunki bu hayajon menda hech qachon bo'lmagan va saqlanib qolgan edi. Ular meni talqinimda - Harry edi. Tarjimonlik yukini, zahmatini yaxshigina his qilardim, tarjima qilib ular yumushin kamaytaman deb o'ylardim. Muhimi, biz -

shogirdlar o'zbek " cho'l bo'risi" ni yorug'likka olib chiqa olishimizga ishonardim. Bizga Hesseni, uni tilini, uslubini o'z holicha yetkaza olgan mohir tarjimonimizdan cheksiz minnatdormiz!

"Cho'l bo'risi" meni bunchalik vujudim egallaganin tushuna olmasdim. Yolg'iz qolganimda, kayfiyatim tushganda yoki albatta shodon vaqtim ham ushbu kitobni quchoqlab olardim, xayolan Harri bilan gaplashardim. Asarni har o'qiganimda yangi bir asar o'qiyogandek bo'lardim. Asar nima uchun dunyo kitobxonlari qalbini egallagani hali bayon qilib bera olmayman.

Shu asar sabab oradan o'n olti yil o'tib, yana talaba bo'ldim, bu asarning ochilmagan qirralarini xalqimizga yetkazishga, Hesseni, umuman nemis adabiyotini kitobxonlarga yetkazishni o'z burchim deb bilaman.

Asar chuqur falsafiy mushohadaga ham chorlaydi;

- " Man sollte stolz auf den Schmerz sein - jeder Schmerz ist eine Erinnerung unsres hohen Ranges. - Azoblanishdan faxrlanish lozim; har bir azob- uqubat bizga unvonimiz yuksakligini eslatadi.

- " Einsamkeit ist Unabhängigkeit, - ist hatte sie mir gewünscht und mir erworben in langen Jahren.-Yolg'izlik mustaqillikdir, buni men uzoq yillar istagan va nihoyat unga erishgan edim.

- " Die meisten Menschen wollen nicht eher schwimmen, als bis sie es ko'nnen".

- Ko'pchilik insonlar o'rgangunlariga qadar ham tezroq suza qolishni istamaydilar.... kabi misollarni keltirish mumkin.

Nemis va o'z tilini tushunishimdan kelib chiqib, bizning " Harri" ning ham kamolotini, mahorati, o'y- xayollarini qayd etgim keldi;

Mohirona tarjimalardan namunalar:

A. ...Etwas belustigt sah er meiner Verliebtheit in Maria zu. - Sezishimcha, Mariyaga maftunligim unga biroz erish tuyular, meni o'zicha kalaka ham qilib qo'yardi....

B. ...Nun glaubte sie mich zu haben, aber im nächsten Tanz war es schon eine andere, an der ich glühte....

- mana endi u meni qo'lga kiritdim deb o'ylardi, men esa keyingi raqsda boshqa bir ayol bilan kuyib- yona boshladim.

C. Warum ist sie verwundert? - Taajjub nechun?

D...sondern predigt Optimismus und Glauben.

- balki nekbinlik hamda ishonch- e'tiqodni targ'ib va tarannum etadi.

E. Harrychen- Harrivoy..

F ...wir plaudern - hangamalashdik..

G. hübsche Welt - dilbar dunyo.

H. Hermine sah mir zärtlich in die Augen- Hermina ko'zlarimga nazokat bilan qaradi.

I. Rindvieh - nodon (kishi)

J...einen ganz kurzen Blick- rov qarab qo'ydi.

K. Noch bin ich nicht deine Geliebte? - men hali sening mahbubang emasmanku?

L. Unerträglich spöttisch sah Mozart mich an: wie pathetisch Sie immer sind?

- Mozart menga shunday masxaraomuz tikildiki, unga toqat qilib bo'lmasdi:

- Sizga his- hayajondanam berganakan- da, o'ziyam!

M....natürlich ganz egal - alixo'ja- xo'jaali...

N. glühende Idealist- otashin xayolparast...

O. desto besser - qandoq yaxshi!

Bu misollarda tarjimon o'z ona tilining shiradorligini, nemis tili bilan uyg'unlikda nafisligini ko'rsatib bergan. Ana shunaqa! Mirzaali Akbarov - bizning arzanda tarjimonimiz!

Mohir tarjimon - Mirzaali Akbarov bilan suhbat

1.Sizning tarjimonlik faoliyatingiz qachondan boshlangan va unga nima turtki bo'lgan?

Менинг таржимонлик фаолиятим талабалик давримдан бошланган, бунга эҳтимол бадиий адабиётларни болалигимдан севиб мутолаа қилганим туртки бўлган бўлса ажабмас.

2.Ilk tarjimangiz qaysi janrdagi asar bolgan?

Илк таржималарим кичик-кичик юморлар бўлган.

3.Eng muvafaqqiyatli chiqqan tarjima asaringiz?

Энг муваффақиятли чиққан таржима асарим, бу – Ҳерманн Ҳессенинг “Чўл бўриси” романидир, албатта.

4.Bilvosita tarjima asarlaringizga misol sifatida qaysi asarlarni ayta olasiz?

Саволингизга жавоб сифатида Таржималар рўйхатимни илова қиляпман.

5.Cho'l bo'risi asarini tarjima qilish fikri qanday vujudga kelgan?

Мазкур асарни оригиналда уч марта қайта-қайта ўқиб чиққанимдан сўнг, уни ўзбек тилига таржима қилишга аҳд қилганман, чунки ушбу асар менда катта таассурот қолдирган.

6.Romanning asosiy sizning e'tiboringizni tortgan jihati nimada?

Романнинг менинг эътиборимни тортган асосий жиҳати – ёзувчининг инсон қалбини, унинг моҳиятини моҳирона очиб бера олганида, деб ўйлайман.

7.Tarjimonlik faoliyatingiz davomida eng ko'p uchrab turadigan qiynchiliklar?

Таржима жараёнида қийинчиликлар бўлиши табиий, албатта, бу энг аввало, таржима қилинаётган асарнинг ўзига хослиги, тили, услуби, ечими ва ҳоказолар билан боғлиқдир.

8.Cho'l bo'risi asarining bosh g'oyasi nima?

Ушбу асарнинг бош ғояси – Инсон ва унинг қалби, ички дунёси ва муаммолари, камчиликларидир.

9. Melinda Naj Abonjining Kabutarlar baland uchadi nomli romanini ham tarjima qilgan ekansiz, bu qaysi tilda yozilgan asar?

Бу асар ҳам албатта, немис тилида ёзилган асар ва уни шу тилдан таржима қилганман.

10. Bevosita tarjima asarlaringizga misol sifatida qaysi asarlarni ayta olasiz?

Юқорида айтиб ўтдим, барча асарларни бевосита аслиятдан таржима қилганман, таржималарим рўяхатини илова қиляпман. Илмий ишларингизда омад тилайман, соғ бўлинг!

.....

Оиламиз ҳақида қисқача маълумот:

Оддий деҳқон оиласида туғилган қишлоқ боласимиз, оилада беш фарзанд – икки қиз, уч ўғил, мен ўртанчасиман. Акамнинг касби шофёр, кейинчалик отамиз раҳматлига ўхшаб, деҳқончилик билан шуғулланиб келади, укам – ўрта мактабда рус тилидан дарс беради. Ўзим ҳақимда гапирадиган бўлсам, ўқувчилик пайтимдаёқ немис тилига жуда қизиққанман, мактабни битирганимиздан сўнг, ўқитувчимиз раҳматли Саҳобиддин Жамолов Абдулла деган ўртоғим икковимизни Тошкентга ўқишга опкелган. Ўртоғим немис тили бўйича кириш имтиҳонидан йиқилиб, қишлоққа қайтиб кетган. Институтда ўқишнинг учинчи куниёқ, “Голубые купола” (“Мовий гумбазлар”) чойхонаси олдида ГДРдан келган сайёҳларни учратиб қолиб, улар билан немис тилида бемалол гаплашганман. Олийгоҳда ўқишнинг ўзи билан қаноатланмай, яна 4 та жойга қатнашганман: “Ўзбекистон” меҳмонхонаси қошида янги очилган “Интурист” гид-тилмочлик курси; ТошДУ қошидаги араб тили бўйича 2 йиллик кечки пуллик курс; “Тошкент ҳақиқати” вилоят газетаси ҳузуридаги 2 йиллик ишчи-деҳқон мухбирлар университети ва “Муштум” журнали ҳузуридаги “Ёш ҳажвчилар” тўғарагига қатнашиб, журнал саҳифаларида кичик-кичик юморларим эълон қилинган. Булардан ташқари, талабалик пайтимда Москвада чиқадиган „Neues Leben“ ва Целиноград (Қозоғистон)да босиладиган „Freundschaft“ газеталарига талабалар ҳаётидан ҳикоя қилувчи мақолаларим ҳамда ўзбек тилидан кичик-кичик таржималарим билан мунтазам қатнашиб турганман. Энди оилам ҳақида: янгангиз уй бекаси, катта ўғлимиз Нурбек – видеочи ҳам пазанда, иккинчи ўғлимиз Турсунали тортчи, хусусий фирмада мастер бўлиб ишлайди, кенжа ўғлимиз Эргашали техникага ҳавас қўйган, техсервисда хизмат қилади. Эргашали немис тилига қизиқиб, мустақил ўрганган. Битта таржима китобчаси ҳам чиққан. Энг кенжа фарзандимиз Гуласал дизайнерлик соҳасига ўқиган, ҳозирда 9 нафар неварамиз бор.

.....

Бадиий таржима бўйича айрим қайдлар ва мулоҳазалар:

- 1). Таниқли рус шоири Белла Ахмадулина бадий таржима ҳақида тўхталиб, бундай деб ёзган: “Таржима – бир инсоннинг бошқа бир инсонга бўлган мухаббатидир”.
- 2). Баъзи бир таржимонларимиздан гоҳо шундай гапларни эшитиб қоламиз: “Таржима қилиш учун аслият тилини билиш шарт эмас”. Очигини айтганда, мен бу фикрга мутлақо қўшилмайман, чунки аслият тилини билишга не етсин! Зотан, аслиятдан қилинган таржима, гарчи биров қўполроқ чиқса ҳам, ҳарҳолда ўқувчи муаллифнинг асида нима демоқчи эканини яхшироқ англаш имконига эга бўлади.
- 3). Таржима қилаётганда баъзи бир ёшлар меҳнатдан қочиб ёки дангасалик қилибми, муайян бир сўзни луғатдан кўришга эриниб, жумлага мослаштириб ёзиб кетаверади ёки қўпол қилиб айтганда “ўтлаб кетади”. Бундай “услуг” мутлақо ярамайди, чунки бир кунмас-бир кун панд беради, зеро, ҳар бир сўзни, ҳар бир жумлани аниқ ва пухта ўгиришга ҳаракат қилмоқ лозим.
- 4). Қайси бир йиғинда қай бир “аллома устозлар”дан бири “Таржимоннинг косаси оқармайди”, деган бўлмағур гапни айтган экан, унга менинг айтадиган жавобим: “Таржимон агарки, чин юракдан ва қалб кўри билан меҳнат қилаверса, косаси тугул, соч-соқоли ҳам оқариб кетади!”
- 5). Қон бўлиб қилган таржимамга нос пули беришди, энди нима қилдим, мен ахир нос чекмасам... (“Шириннордон гаплар”дан).